

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI MUQADDIMASIDA DUNYO OBRAZI VA KOMIL INSON KONSEPSIYASI

Xujaeva Shoiraxon

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
(PhD), doktorant (DSc)..

e-mail: shoiraxon24@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-6607-276X>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni muqaddimasida dunyo obrazi va komil inson konsepsiyasining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Unda dunyoning ilohiy tajalli, ma'naviy kamolot va ijtimoiy adolat makoni sifatidagi talqini yoritilib, shoh va gado falsafasi hamda Iskandar timsolining komillik g'oyasini ifodalashdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”, dunyo obrazi, komil inson, tasavvuf, shoh va gado falsafasi, Iskandar timsoli, ilohiy tajalli, ma'naviy kamolot, ijtimoiy adolat.

ОБРАЗ МИРА И КОНЦЕПЦИЯ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ПРЕДИСЛОВИИ К ПОЭМЕ «САДДИ ИСКАНДАРИЙ» АЛИШЕРА НАВОИ

Хужаева Шоирахон

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, (PhD), докторант (DSc).

Аннотация.

В статье анализируется взаимосвязь образа мира и концепции совершенного человека в предисловии к поэме Алишера Навои «Садди Искандарий». Освещается трактовка мира как пространства божественного проявления, духовного совершенствования и социальной справедливости, раскрывается значение философии шаха и нищего, а также образа Искандера в выражении идеи совершенства.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Садди Искандарий», образ мира, совершенный человек, суфизм, философия шаха и нищего, образ Искандера, божественное проявление, духовное совершенствование, социальная справедливость.

THE IMAGE OF THE WORLD AND THE CONCEPT OF THE PERFECT HUMAN IN THE PREFACE TO ALISHER NAVOI'S EPIC “SADDI ISKANDARIY”

Xujaeva Shoiraxon

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, PhD, DSc Doctoral Student..

Abstract.

The article examines the relationship between the image of the world and the concept of the Perfect Human in the preface to Alisher Navoi's epic “Saddi Iskandariy”. It explores the interpretation of the world as a space of divine manifestation, spiritual perfection, and social justice, highlighting the philosophy of the king and the beggar as well as the role of Iskandar in embodying the ideal of perfection.

Keywords: Alisher Navoi, “Saddi Iskandariy”, image of the world, Perfect Human, Sufism, philosophy of the king and the beggar, image of Iskandar, divine manifestation, spiritual perfection, social justice.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida dunyo obrazi insonning borliqdagi o'rni, yaratilish maqsadi va ma'naviy kamolot masalalarini yorituvchi muhim badiiy-falsafiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasavvufiy tafakkur ta'sirida shakllangan adabiy an'anada dunyo nafaqat moddiy olam, balki ilohiy haqiqatni anglash, o'zlikni kashf etish va komillikka erishish yo'lidagi sinov maydoni sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan Alisher Navoiy ijodida dunyo obrazining badiiy va falsafiy talqini alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi “Saddi Iskandariy” dostoni shoirning inson, jamiyat va borliq

haqidagi qarashlari mujassamlashgan yirik falsafiy-badiiy asarlardan biridir. Doston muqaddimasida yaratilish, Ilohiy husn, Vujudi Mutlaq, insonning olamdagi maqomi kabi masalalar tasavvufiy-irfoniy nuqtayi nazardan talqin etilib, komil inson konsepsiyasining nazariy asoslari yoritiladi. Mazkur qarashlar asarning keyingi voqealari, xususan, Iskandar obrazi va uning ma'naviy kamolot yo'li bilan uzviy bog'liq holda rivojlantiriladi.

Navoiyshunoslikda "Saddi Iskandariy" dostoni turli jihatlardan tadqiq etilgan bo'lsa-da, muqaddimada aks etgan dunyo obrazi va uning komil inson konsepsiyasini shakllantirishdagi o'rni masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Holbuki, muqaddimaning g'oyaviy-falsafiy mazmuni dostonning butun konseptual tizimini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi "Saddi Iskandariy" dostoni muqaddimasida dunyo obrazining badiiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uning komil inson konsepsiyasi bilan bog'liqligini ochib berish hamda Iskandar timsoli orqali ifodalangan ma'naviy kamolot g'oyalari yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni navoiyshunoslikda shoirning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlarini mujassamlashtirgan yirik badiiy asarlardan biri sifatida baholanadi. Asar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda uning manbaviy asoslari, Iskandar obrazi talqini, tarixiylik va badiiylilik munosabati, shuningdek, ideal hukmdor konsepsiyasi masalalari keng yoritilgan. Xususan, S. G'aniyeva, A. Hayitmetov, N. Karimov, Ye. Bertels kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida dostonning badiiy-estetik xususiyatlari hamda Iskandar timsolining o'ziga xos talqinlari tadqiq etilgan [1, 2, 3, 6].

So'nggi yillarda "Saddi Iskandariy" dostonining ayrim masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, I. Pardayeva va L. Turabekovalar Iskandar obrazining tarixiy haqiqat va badiiy to'qima bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilib, Navoiy tomonidan yaratilgan qahramon timsoli tarixiy Aleksandr siymosidan ko'ra ko'proq ma'naviy-axloqiy idealni ifodalashga xizmat qilishini ta'kidlaydilar [4]. Ushbu yondashuv dostonning g'oyaviy mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy ijodidagi tasavvufiy-falsafiy qarashlarni o'rganishda N. Komilov, I. Haqqul va boshqa tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi [7, 9, 10]. Mazkur tadqiqotlarda komil inson, ilohiy ishq, vahdat, ma'naviy kamolot kabi tushunchalarning Navoiy asarlaridagi badiiy ifodasi yoritilgan. Shuningdek, S. Yoqubov tasavvuf falsafasida komil inson konsepsiyasining ontologik asoslarini tahlil qilar ekan, komillik g'oyasining insonning o'z mohiyatini anglashi va ilohiy haqiqatga yaqinlashishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi [5]. Ushbu nazariy qarashlar "Saddi Iskandariy" muqaddimasida ilgari surilgan dunyo va inson haqidagi tasavvurlarni sharhlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Saddi Iskandariy" dostoni ko'proq Iskandar obrazi, adolatli hukmdor g'oyasi va tarixiy-badiiy masalalar doirasida o'rganilgan. Biroq muqaddimada aks etgan dunyo obrazi hamda uning komil inson konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqligi masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqolada aynan ushbu jihat tasavvufiy-estetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy-tahliliy, qiyosiy, germeneytik hamda konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Muqaddima tarkibidagi baytlar matnning ichki mantiqi, tasavvufiy-falsafiy mazmuni va obrazlar tizimi asosida sharhlanib, dunyo obrazi hamda komil inson konsepsiyasining o'zaro bog'liqligi yoritildi.

MUHOKAMA

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi dostonlar o'zaro g'oyaviy izchillik asosida qurilgan bo'lib, ularda insonning ma'naviy kamoloti turli badiiy vaziyat va obrazlar vositasida yoritiladi. Shoir komillik masalasini ayrim asarlarda individual-ruhiy takomil nuqtayi nazaridan talqin etsa, ayrimlarida uning ijtimoiy-axloqiy mazmunini ochib beradi. Shu jihatdan "Saddi Iskandariy" dostoni muqaddimasi Navoiy tafakkuridagi komil inson konsepsiyasining eng mukammal ifodalaridan biri sifatida alohida e'tiborga molik. Unda dunyo obrazi insonning ma'naviy kamolot yo'li, ilohiy haqiqatni anglash jarayoni hamda adolatli jamiyat qurish g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi.

Navoiy nazarida o'z javharini anglagan, nafsini jilovlagan va Haqqa bog'langan insonning kamoloti ijtimoiy munosabatlarda ham aks etishi lozim. Shu bois "Saddi Iskandariy" muqaddimasida dunyo obrazi nafaqat ilohiy tajalli va ma'naviy tarbiya maydoni, balki adolat, himmat, saxovat va insonparvarlik qaror topadigan ijtimoiy makon sifatida ham gavdalanadi.

Shu tariqa, doston muqaddimasida ilgari surilgan ilohiy-irfoniy qarashlar komil inson masalasi bilan bevosita bog'lanadi. Endilikda e'tibor faqat insonning o'zligini anglashiga emas, balki bu anglashning hayot va jamiyatdagi amaliy natijalariga qaratiladi. Natijada asarda komillik shaxsiy ruhiy tajriba darajasidan ijtimoiy-falsafiy hodisa darajasiga ko'tariladi.

Muqaddimaning dastlabki baytlaridanoq asar davomida rivojlantiriladigan shoh va gado falsafasining asosiy tamoyillari o'z ifodasini topadi:

Xudoyo, musallam xudoliq sanga,

Birov shahki, da'bi gadoliq sanga. [8; 7-b.]

Mazkur baytda shoh va gado qarama-qarshiligi orqali tasavvufdagi eng muhim g'oyalardan biri — Mutlaq qudrat oldida barcha mavjudotlarning tengligi ifodalangan. Shoir nazarida haqiqiy podshohlik faqat Haqqa xosdir. Inson esa dunyoviy mavqeyidan qat'i nazar, ilohiy haqiqat qarshisida muhtojdir. Ushbu fikr keyingi baytlarda ilohiy saxovat konsepsiyasi vositasida yanada chuqurlashtiriladi:

Vujud ahlining komi judung bila,

Kelib jud qoyim vujudung bila. [8; 7-b.]

Navoiy bu yerda Vujudi Mutlaqning olam bilan munosabatini saxovat (jud) timsoli orqali izohlaydi. Unga ko'ra, mavjudot ahlining barcha orzu va maqsadlari ilohiy saxovat tufayli ro'yobga chiqadi. Chunki borliqning o'zi ham Haqning cheksiz fayzi va ehsonining mahsulidir.

Bu o'rinda saxovat oddiy axloqiy fazilat emas, balki borliqning mohiyatini belgilovchi ilohiy tamoyil sifatida talqin etiladi. Olamning yaratilishi ham, uning davom etishi ham ilohiy ehson natijasidir. Shoirning "Kelib jud qoyim vujudung bila" degan misrasi saxovatning Haq zotidan ajralmas sifat ekanini anglatadi. Demak, inson saxovat ko'rsatganida shunchaki ezgu ish qilmaydi, balki ilohiy sifatlardan birining zohir bo'lishiga vosita bo'ladi.

Mazkur qarashning o'ziga xos tomoni shundaki, avvalgi dostonlarda ma'rifat, ishq, ruhiy kamolot va nafsni yengish masalalari markazda turgan bo'lsa, bu dostonda ular ijtimoiy fazilatlar bilan uzviy bog'lanadi. Navoiy nazarida komillik faqat botiniy holat emas, u adolatda, saxovatda, himmatda va xalq manfaatiga xizmat qilishda namoyon bo'lishi kerak. Shu bois muqaddimada Vujudi Mutlaqning sifatlari haqida yuritilgan mulohazalar bir vaqtning o'zida komil inson va komil hukmdor uchun axloqiy-me'yoriy dastur vazifasini ham bajaradi.

Tasavvufda komil inson ilohiy sifatlarning mazhariga aylangan, nafs cheklovlarini yengib, Haqni anglash maqomiga yetgan shaxs sifatida tushuniladi. Shu sababli u yaratilishning maqsadi va ilohiy tajallining eng mukammal ko'zgusi hisoblanadi. Ushbu yondashuv komil insonning nafaqat axloqiy-ma'naviy ideal, balki ontologik bog'lovchi maqomga ega ekanini ham ko'rsatadi, zero, u Yaratuvchi va yaratilgan mavjudot o'rtasidagi muhim vositachi bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi [5; 257-b.]. Navoiy ijodida ham mazkur masala alohida o'rin tutib, "Xamsa" dostonlari davomida bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. "Saddi Iskandariy"ga kelib esa komil inson haqidagi ushbu xulosalar Iskandar timsolida o'zining eng mukammal badiiy ifodasini topadi. Shuning uchun ham muqaddimada yaratilish, ilohiy husn, insonning olamdagi o'rni va ishq haqidagi mulohazalar bevosita insoni komil konsepsiyasini asoslashga xizmat qiladi:

Zihi turfa ma'shuqi oshiqnavoz
Ki, qilmoqqa o'z husnini jilvasoz.
Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame. [8; 14-b.]

Ushbu baytlarda olamning yaratilishi Haqning o'z husnini namoyon etish istagi hamda ilohiy karam bilan bog'liq holda talqin etiladi. Muhimi shundaki, Navoiy borliqning markaziga insonni qo'yadi. Biroq bu yerda inson oddiy biologik mavjudot yoki yer yuzidagi hukmdor sifatida emas, balki ilohiy tajallini anglash qudratiga ega yaratilgan sifatida tushuniladi. Chunki faqat insongina husndan Mahbubni, naqshdan Naqqoshni, tajallidan Mutajalliyni anglash salohiyatiga egadir. Mazkur fikr navbatdagi baytda yanada ravshanlashadi:

G'araz odame anga olam tufayl,
Nekim g'ayri olamdur, ul ham tufayl. [8; 14-b.]

Bu misralarda inson maqomining falsafiy asoslari yanada teranlashadi. Agar avvalgi baytlarda uning surat ortidagi haqiqatni anglash salohiyati ta'kidlangan bo'lsa, bu yerda ana shu salohiyatning sababi ochib beriladi. Ya'ni borliqning o'zi inson tufayli va inson uchun yaratilgan haqidagi g'oya ilgari suriladi. Natijada insonning koinotdagi markaziy o'rni nafaqat irfoniy, balki borliqning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi asosga ega ekanligi namoyon bo'ladi.

"Saddi Iskandariy" muqaddimasida shoh va gado masalasi ham yangicha mazmun kasb etadi. Insonning asl qadri tashqi mavqe yoki ijtimoiy daraja bilan emas, balki uning ma'naviy mohiyati bilan belgilanganligi sababli shoh va gado o'rtasidagi farq ham zohiriy ko'rinishdan nariga o'tmaydi:

Yorurda quyosh partavidin saro,
Qachon farq o'lur fahm zarrot aro. [8; 19-b.]

Quyosh va zarralar obrazi Sharq irfoniy adabiyotida keng qo'llanadigan ramzlardan biridir. Bu yerda quyosh Vujudi Mutlaqning ramziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy "Qachon farq o'lur fahm zarrot aro?" degan savol orqali insonlar o'rtasidagi sun'iy tafovutlarni inkor etadi. Quyoshning son-sanoqsiz nurlari orasida zarralar bir-biridan ajralib turmagani kabi, Haq nazarida ham barcha bandalar asl mohiyat nuqtayi nazaridan tengdir. Tasavvufiy talqinda insonning qadri nasl-nasab, mansab yoki boylik bilan emas, balki uning Haqqa yaqinlik darajasi bilan belgilanadi.

Bu baytlar Navoiy ilgari surayotgan komil inson konsepsiyasining muhim jihatini ochib beradi. Komillik hokimiyat yoki saltanat bilan emas, balki dunyoviy tafovutlar ortidagi yagona haqiqatni anglash bilan bog'liqdir. Shu bois shoir uchun shohlik va gadolik tashqi holat, insonning asl maqomi esa uning ma'naviy darajasida namoyon bo'ladi.

Mazkur g'oya dostonning ilk qismida keltirilgan mag'riblik gado haqidagi hikoyatda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Rivoyatga ko'ra, Iskandar Mag'rib diyorini fath etgach, u yerga hukmdor tayinlash masalasini ko'tarib, mamlakatda shohlikka munosib kishi bor-yo'qligini surishtiradi. Shunda unga nihoyatda dono va zakovatli bir gado haqida xabar beradilar. Iskandar amri bilan saroyga keltirilgan bu kishi shoh huzuriga qo'lida ikki bosh suyagi bilan kiradi va ulardan qaysi biri shohniki, qaysi biri gadoniki ekanini ajrata olmaganini aytadi. So'ng: "O'lgandan keyin bir xil holga kelar ekanlar, tiriklik paytida nega bir-birlari bilan nizolashadilar?" deya savol qo'yadi.

Ushbu lavha muqaddimada ilgari surilgan shoh va gado haqidagi tasavvufiy qarashlarning badiiy ifodasidir. Darhaqiqat, inson hayoti nihoyasiga yetgach, uning ijtimoiy mavqeyi, mansabi va boyligi ham o'z ahamiyatini yo'qotadi. Demak, insonning haqiqiy qadri dunyoviy hukmronlik bilan emas, balki ma'naviy yetuklik darajasi bilan belgilanadi.

Hikoyaning g'oyaviy markazi Iskandarning donishmand gadoga hukmdorlik taklif qilishida namoyon bo'ladi. Biroq u bu taklifni rad etib, o'limsiz hayot, qarilik bilmas yoshlik, kambag'allik yetmaydigan boylik va g'amsiz shodlik istashini aytadi. Aslida bu tilaklarning birortasi ham dunyo hayotida amalga oshmaydi. Shu tariqa gado saltanatning cheklangan va o'tkinchi mohiyatini ochib beradi. Uning nazarida shohlik ham insonni mutlaq saodatga eltishga qodir bo'lmagan foni ne'matlardan biridir. Iskandar uning hikmati va yuksak himmatiga qoyil qolar ekan, Navoiy hikoyatni quyidagi falsafiy

xulosa bilan yakunlaydi:

Gadoyeki bo'lg'ay biyik himmati:

Anga past erur shohlig' rif'ati. [8; 103-b.]

Mazkur baytda asarning asosiy axloqiy-falsafiy g'oyalaridan biri mujassamdir. Tasavvufiy tafakkurda himmat insonning ma'naviy yuksalishga yo'naltirilgan ichki quvvati, oliy maqsadlar sari intilish salohiyatini anglatadi. Himmati ulug' inson uchun dunyoviy martaba va hokimiyatning qadri yo'q, chunki uning maqsadi moddiy ustunlik emas, ruhiy kamolotdir. Shu sababli Navoiy nazarida haqiqiy buyuklik taxtda emas, himmatda; saltanatda emas, ma'naviy erkinlikdadir.

Hikoyat va uning yakunidagi xulosa "Saddi Iskandariy"da ilgari surilgan komil inson konsepsiyasining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Komillik shoh bo'lishda emas, shohlikka muhtoj bo'lmaslikda; hokimiyatni qo'lga kiritishda emas, uning foni mohiyatini anglashda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan mag'riblik gado Iskandar qarshisida oddiy faqir emas, balki dunyoviy saltanatdan yuksak turgan ma'naviy kamolot sohibi sifatida gavdalanadi.

Biroq Iskandar mag'riblik gado hikmatidan ta'sirlangan va uning yuksak himmatini e'tirof etgan bo'lsa-da, bu haqiqatning mohiyatini hali to'liq anglab yetmagan edi. Chunki u umrining katta qismini dunyo mamlakatlarini zabt etish, saltanat hududlarini kengaytirish va hukmronlik qudratini mustahkamlash yo'lida o'tkazadi. Shu bois dostonida Iskandar obrazi avvaldan komillik maqomida tasvirlanmaydi, aksincha, u komillik sari bosqichma-bosqich yuksalib borayotgan qahramon sifatida gavdalanadi.

NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi dunyoviy qudratdan ma'naviy komillik sari yuksalib boruvchi inson timsoli sifatida talqin etiladi. Asar davomida qahramonning bosib o'tgan hayot yo'li, turli xalqlar va donishmandlar bilan muloqotlari, ilm va hikmatni egallashga intilishi uning dunyo haqidagi tasavvurlarini tobora teranlashtirib boradi. Shu tariqa Iskandar dunyoni zabt etuvchi hukmdordan dunyoning asl mohiyatini anglagan komil inson darajasiga ko'tariladi.

Asar davomida Iskandar turli mamlakatlarni kezadi, turfa xalqlar va taqdirlar bilan yuzlashadi, donishmandlar bilan muloqot qiladi. Ayniqsa, uning ustozlari Arastu bilan suhbatlari, ilm va hikmatni egallash yo'lidagi sa'y-harakatlari qahramonning dunyoqarashini tobora boyitib boradi. Natijada u saltanat va hokimiyatning tashqi qudrati ortida yashiringan foniylilik haqiqatini anglash darajasiga yetadi.

Mazkur ma'naviy taraqqiyotning eng yuksak nuqtasi Iskandarning umr poyonidagi holatida namoyon bo'ladi. Navoiy talqiniga ko'ra, dunyoni zabt etgan buyuk sarkarda hayotining so'nggi lahzalarida barcha g'alabalar, boyliklar va saltanatlarining o'tkinchi ekanini chuqur idrok etadi. Shu bois u onasiga yo'llagan maktubida uni so'nggi manzilga kuzatayotganlardan tobutidan bir qo'lini tashqariga chiqarib qo'yishlarini vasiyat qiladi. Ushbu ramziy ishora orqali Iskandar insoniyatga muhim bir haqiqatni yetkazmoqchi bo'ladi: butun dunyoni fath etgan hukmdor ham oxirat sari quruq qo'l bilan ketadi. Inson bilan birga qoladigan narsa uning mol-mulki yoki saltanati emas, balki ma'naviy kamoloti va ezgu amallaridir.

XULOSA

Shunday qilib, "Saddi Iskandariy"da dunyo obrazi faqat foniylilik timsoli sifatida emas, balki insonni haqiqat sari yetaklovchi ma'rifat makoni sifatida ham talqin etiladi. Iskandarning hayot yo'li dunyoga hukmronlik qilish istagidan uning asl mohiyatini anglash darajasigacha bo'lgan murakkab ma'naviy taraqqiyot jarayonini aks ettiradi. Muallif qahramonning bosib o'tgan yo'li orqali inson kamoloti bir lahzada emas, balki ilm olish, tajriba orttirish, mushohada yuritish va o'zlikni anglash jarayonida shakllanishini ko'rsatadi. Shu tariqa Navoiy Iskandar timsolida dunyoning zohiriy qudratini emas, balki uning botiniy haqiqatini idrok etgan komil inson obrazini yaratadi hamda o'quvchini ham moddiy olamning o'tkinchi jilvalaridan yuksalib, ma'naviy kamolot sari intilishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'aniyeva S. *Navoiyning "Xamsa"si va uning adabiy manbalari*. – Toshkent: Fan, 1985. – 320 b.
2. Hayitmetov A. *Navoiy lirikasi va adabiy ta'sir masalalari*. – Toshkent: Fan, 1963. – 290 b.
3. Karimov N. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 420 b.
4. Pardayeva I., Turabekova L. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazining tarixiy haqiqat va badiiy to'qima muammosi // *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*. – 2026. – № 3 (6). – B. 141–144.
5. Yoqubov S. Tasavvuf falsafasida "komil inson" konsepsiyasining ontologik asoslari // *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*. – 2026. – № 3 (6). – B. 254–257.
6. Бертельс Е. Э. *Навои и Джами*. – М.: Наука, 1965. – 498 с.
7. Komilov N. *Tasavvuf*. – Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.
8. Navoiy Alisher. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 tomlik. T. 11. *Saddi Iskandariy*. – Toshkent: Fan, 1993.
9. Haqqul I. *Meros va mohiyat*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Haqqul I. *Navoiyga qaytish*. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 2011.